



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI STATISTIKA BOSHQARMASI



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QURILISH ISHLARI

2024-YIL YANVAR-AVGUST OYLARI

Qoraqalpog‘iston Respublikasi statistika boshqarmasi

2024- yilning yanvar-avgust oylarida, Qoraqalpog‘iston Respublikasida jami **3 955,9** mlrd so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘shish sur‘ati **105,6 %** ni tashkil etdi.

12,2 %

Yirik qurilish
tashkilotlari

482,7
mlrd so‘m

2023- yilning yanvar-
avgust oylariga nisbatan

169,0 %

64,4 %

Kichik korxonalar
va mikrofirmalar

2 546,2
mlrd so‘m

2023- yilning yanvar-
avgust oylariga nisbatan

103,3 %

23,4 %

Norasmiy sektor

927,0
mlrd so‘m

2023- yilning yanvar-
avgust oylariga nisbatan


96,4 %

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo‘yicha shakllanadi.

2024- yilning yanvar-avgust oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 482,7 mlrd so‘mni tashkil etdi. Qurilish ishlari o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 183,2 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 5,2 % punktga ko‘payib, 12,2 % ni tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari 2024- yil yanvar-avgust oylarida

qurilish ishlari hajmi, mlrd so'm




Qurilish ishlari 2024- yil yanvar-avgust oylari uchun

	Qurilish ishlari, mlrd so'm	Shu jumladan:		
		Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik korxonalar va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
Qoraqalpog'iston Respublikasi	3 955,9	482,7	2 546,2	927,0
Nukus sh. tumanlar:	1 280,9	70,9	1 100,0	110,0
Amudaryo	248,8	15,8	125,2	107,8
Beruniy	299,5	6,9	185,3	107,3
Bo'zotov	68,3	3,0	55,1	10,2
Qorao'zak	45,6	7,5	23,0	15,1
Kegeyli	69,1	21,2	31,8	16,1
Qo'ng'iro't	190,6	71,0	84,6	35,0
Qonliko'l	49,5	3,1	5,0	41,4
Mo'ynoq	178,4	126,7	35,7	16,0
Nukus	176,7	7,3	87,9	81,5
Taxiatosh	204,5	38,2	138,5	27,8
Taxtako'pir	44,2	2,4	30,5	11,3
To'rtko'l	466,5	62,5	259,2	144,8
Xo'jayli	161,6	2,3	106,1	53,2
Chimboy	95,6	6,3	29,8	59,5
Shumanay	38,5	5,5	13,5	19,5
Ellikqal'a	337,6	32,1	235,0	70,5

2024- yilning yanvar-avgust oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 482,7 mlrd so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari o'tgan yilning mos davriga nisbatan 183,2 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 5,2 % punktga ko'paydi va 12,2 % ni tashkil etdi.

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



Ma'lumot uchun: Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Mo'ynoq tumani (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining 71,0 % i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 195,2 %), Qo'ng'iro't tumani (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining 37,3 % i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 133,4 %), Kegeyli tumani (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining 30,7 % i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 498,5 %), va Taxiatosh (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining 18,7 % i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 73,6%) tumaniga to'g'ri keldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

2024- yilning yanvar-avgust oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 64,4 % i to'g'ri kelib, 2023- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 1,9 % punktga kamaygan. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2023- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 102,1 % ni tashkil etgan holda 2 546,2 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar, ulushi, % da



64,4

2024- yil
yanvar-avgust

66,3


2023- yil
yanvar-avgust



Ma'lumot uchun: Joriy hisobot davrida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori hajm ko'rsatkichi Nukus shahri (1 100,0 mlrd so'm yoki umumiy hajmga nisbatan ulushi 85,9 %), To'rtko'l tumani (259,2 mlrd so'm yoki 55,6 %) Beruniy tumani (185,3 mlrd so'm yoki umumiy hajmga nisbatan ulushi 61,9 %), ga to'g'ri keldi.

Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi 23,4 % ni tashkil etdi yoki 927,0 mlrd so'm miqdorida qayd etildi. 2023- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 93,9 % ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **198,0** mlrd so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **3 757,9** mlrd so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning respublikadagi ulushi mos ravishda **5,0 %** va **95,0 %** ni tashkil etdi.

2023- yil yanvar-avgust



2024- yil yanvar-avgust



Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi 2024- yil yanvar-avgust oylarida

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **73,5 %** i yoki **2 905,9** mlrd so‘m qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

Yirik qurilish tashkilotlari bo‘yicha yangi qurilish hisobidan 247,6 mlrd so‘mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 8,5 % ni tashkil etdi.

8,5 %

247,6
mlrd so‘m

Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo‘yicha yangi qurilish hisobidan 1806,6 mlrd so‘m yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi 63,2 % ni tashkil etdi.

63,2 %


1806,6
mlrd so‘m

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 851,7 mlrd so‘m yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 29,3 % ni tashkil etdi.

29,3 %


851,7
mlrd so‘m

Yillar bo‘yicha yangi qurilish hajmi va ulushi



Respublikada iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi bino va inshootlarni qurishga 2 854,3 mlrd so'm, ulushi 72,2 % ni, fuqarolik obyektlarini qurishga 890,2 mlrd so'm, ulushi 22,5 % ni, ixtisoslashtirilgan qurilish ishlariga 211,4 mlrd so'm va ulushi ulushi 5,3 % ni tashkil etdi



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

Bino va inshootlar qurilishi

ulushi % da



Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 7,0 % ni tashkil etdi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,3 % punktga kamayib, 60,5 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,6 % punktga kamaydi va 32,5 % ni tashkil etdi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 29,7 % ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 10,4 % punktga ko'paydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 70,3 % ni tashkil etdi.

ulushi % da

38,6

19,3

80,7

29,7

70,3



Yirik qurilish
tashkilotlari

2023- yil
yanvar-avgust



Kichik korxonalar
va mikrofirmalar

2024- yil
yanvar-avgust

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 5,8 % punktga kamaydi va 8,3 % ni tashkil etdi. Qolgan, 91,7 % i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 5,8 % punktga ko'paydi.

